

Date: 29th April-2025

**INGLIZ TILIDA SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISHDA LEKSIK YONDASHUV VA
UNING AHAMIYATI**

Sodiqova Aziza, Axmedova Dilfuza

Respublika musiqa va san’at texnikumi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o‘rganishda so‘z boyligini rivojlantirishning samarali usullari, leksik yondashuvning nazariy asoslari va amaliy metodlari tahlil qilinadi. So‘z o‘zlashtirish jarayonida kontekstual o‘rganish, vizual yordamlar, asosiy va mavzuli lug‘at birikmalari orqali natijadorlikni oshirish muhimligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: leksika, so‘z boyligi, ingliz tili, kontekstual o‘rganish, lug‘at strategiyalari, til ko‘nikmalari

Kirish:

Til o‘rganishda eng asosiy bosqichlardan biri bu — so‘z boyligini rivojlantirishdir. Ayniqla, ingliz tilidek xalqaro aloqa tilida boy lug‘at zaxirasi o‘quvchining fikrini erkin va aniq ifoda etish imkonini beradi. Leksik kompetensiyani shakllantirish o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish kabi barcha asosiy ko‘nikmalar negizidir.

Leksik yondashuvning nazariy asoslari Leksik yondashuv asosida til o‘rganuvchining so‘z boyligini bosqichma-bosqich shakllantirish yotadi. So‘z yodlashda kontekst asosida tushunish, kolokatsiyalar (so‘z birikmalari), sinonimlar va antonimlar orqali semantik tarmoq hosil qilish juda samarali hisoblanadi. Bu uslub tilni sun’iy yodlashdan farqli o‘laroq, tabiiy muhitda o‘zlashtirish imkonini beradi. Psixolingvistika tadqiqotlari ham aynan kontekstda o‘rganilgan so‘zlar ko‘proq vaqtga yodda qolishini ko‘rsatmoqda.

So‘z boyligini oshirishning amaliy metodlari – *Kontekstual o‘rganish*: So‘zlar matn ichida, gapda yoki voqeada ishlatalganda yodda yaxshi qoladi. Bu o‘quvchining semantik sezgirligini oshiradi. – *Vizual metodlar*: Diagramma, mind map, flashcard kabi ko‘rgazmali vositalar yordamida o‘rganish samarali. Xususan, vizual yodlash strategiyalari vizual tipdagи o‘rganuvchilar uchun ayniqla foydalidir. – *Spaced repetition (takroriy intervallar)*: So‘zlarni bosqichma-bosqich takrorlab o‘rganish ularni uzoq vaqtga eslab qolishga yordam beradi. Bu uslub Anki, Quizlet kabi ilovalarda keng qo‘llaniladi. – *Mavzuli lug‘at yondashuvi*: Talabalar qiziqqan mavzular asosida so‘zlar o‘rganilsa, motivatsiya oshadi. Mavzuli o‘rganish ingliz tilidagi so‘zlarni semantik guruhlarga ajratib, eslab qolishni osonlashtiradi.

So‘z boyligining til ko‘nikmalariga ta’siri Boy leksik zaxira og‘zaki nutqni silliq, ravon va ifodali qilishga xizmat qiladi. Ayniqla, akademik yozuv va rasmiy muloqotda sinonimik birlikkardan foydalanish o‘quvchining til madaniyatini oshiradi. Shuningdek, so‘z boyligi tinglab tushunish tezligini ham oshiradi. Ko‘p so‘z bilgan o‘quvchi matnlarni tez va to‘g‘ri anglaydi, bu esa uning umumiy til bilimini mustahkamlaydi.

CONTINUING EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE, INNOVATION, AND TRANSFORMATION.

International online conference.

Date: 29th April-2025



Texnologik vositalar yordamida so‘z boyligini rivojlantirish Mobil ilovalar (Quizlet, Anki), onlayn lug‘atlar, interaktiv mashg‘ulotlar va AI vositalari (ChatGPT, Grammarly) orqali so‘zlarni o‘rganish zamonaviy va qulay usullardandir. Bu texnologiyalar leksik o‘zlashtirishni shaxsiylashtirilgan va adaptiv qilish imkonini beradi. Masalan, o‘quvchi o‘zining zaif tomonlarini belgilab, aynan shu yo‘nalishda mashg‘ulotlar olib borishi mumkin.

O‘zbek o‘quvchilari uchun leksik o‘rganishdagi qiyinchiliklar va yechimlar O‘zbekiston ta’lim muassassalarida ingliz tilini o‘rganayotgan o‘quvchilarda so‘z boyligini rivojlantirishda ko‘pincha passiv yondashuv (so‘z yodlash ro‘yxat asosida) kuzatiladi. Bunday usul qisqa muddatli eslab qolishga xizmat qiladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun: – Rasmli kartochkalar, dialog asosidagi mashqlar joriy etilishi, – Qiziqarli matnlar asosida yangi so‘zlar o‘rgatilishi, – Guruhli ishlarda til muhitini yaratish taklif qilinadi.

Pedagogik yondashuvlar va baholash tizimlari Leksik o‘zlashtirishda formatif baholash (doimiy nazorat va tavsiyalar berish), o‘z-o‘zini baholash va peer-assessment (o‘quvchilar bir-birining ishi bo‘yicha fikr bildirishi) motivatsiyani oshiradi. Shuningdek, ingliz tilida so‘z boyligini sinovdan o‘tkazishda gap yozish, og‘zaki nutqni baholash testlaridan foydalanish afzaldir.

Xulosa: Ingliz tilini o‘rganishda leksik yondashuv samarali metodlardan biri hisoblanadi. So‘zlarni kontekstda, mavzuga mos va ko‘rgazmali vositalar yordamida o‘rganish o‘quvchilarning eslab qolish darajasini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan leksik yondashuv til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, O‘zbekiston sharoitida ushbu metodlarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirib joriy etish orqali o‘quvchilarning ingliz tilida erkin fikrlash kompetensiyasi shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nation, I.S.P. *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.
2. Schmitt, N. *Vocabulary in Language Teaching*. Cambridge, 2000.
3. McCarthy, M., & O’Dell, F. *English Vocabulary in Use* series. Cambridge.
4. Ur, P. *A Course in Language Teaching: Practice and Theory*, Cambridge, 1996.
5. Djalolov, J. *Ingliz tili metodikasi*. – Toshkent, 2021.